ILM-FAN XABARNOMASI, SCIENCE BULLETIN, ВЕСТНИК НАУКИ
ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

FUQAROLIK JAMIYATINING RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIY INSTITUTLARNING AHAMIYATI

Teshaboyev Abbos Xoldorjon o‘g‘li
Namangan davlat universiteti
Arxeologiya kafedrasi katta o‘qituvchisi
https://orcid.org/0009-0002-7534-1662
Tel:+998911771071
https://doi.org/10.5281/zenodo.20054640

Annotatsiya

Fuqarolik jamiyati borasidagi qarashlar qadimgi falsafiy maktablarda boshlangan bo‘lib, hozirgi zamonaviy siyosiy va huquqiy konsepsiyalargacha bo‘lgan ko‘p asrlik rivojlanish yo‘lini bosib o‘tgan. Qadimgi davrlarda yashab o‘tgan mutafakkir va olimlar insonlarning jamiyat hayotidagi o‘rni, erkinligi va adolatli jamiyat haqida turli-xil g‘oyalarni ilgari surganlar. Ushbu fikrlar asosida fuqarolik jamiyati to‘g‘risida tushunchalar sekin-asta shakllandi va rivojlanishning turli davrlarida o‘ziga xos mazmun kasb etdi.

Kalit so‘zlar: Fuqarolik jamiyati, qadriyatlar, jamiyat, fuqarolik tarbiyasi, ijtimoiy institutlar, fuqarolik ong, fuqarolik pozitsiyasi, fuqarolik mas’uliyati,

THE IMPORTANCE OF SOCIAL INSTITUTIONS IN THE DEVELOPMENT OF CIVIL SOCIETY

Annotation

The concept of civil society originated in ancient philosophical schools and has developed over centuries to modern political and legal concepts. Thinkers and scholars who lived in ancient times put forward various ideas about the role of people in society, their freedom, and a just society. Based on these ideas, concepts of civil society gradually took shape and acquired their own specific content at different periods of development.

Key words: Civil society, values, society, civic education, social institutions, civic consciousness, civic position, civic responsibility,

ВАЖНОСТЬ СОЦИАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ В РАЗВИТИИ ГРАЖДАНСКОГО ОБЩЕСТВА

Аннотации

Концепция гражданского общества зародилась в древних философских школах и на протяжении веков развивалась до современных политических и правовых концепций. Мыслители и ученые, жившие в древности, выдвигали различные идеи о роли человека в обществе, его свободе и справедливом обществе. На основе этих идей постепенно формировались концепции гражданского общества, приобретавшие свое специфическое содержание в разные периоды развития.

Ключевые слова: Гражданское общество, ценности, общество, гражданское образование, социальные институты, гражданское сознание, гражданская позиция, гражданская ответственность.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida jamiyatning taraqqiy etish jarayonida fuqarolik jamiyatini shakllantirish va yanada rivojlantirish borasida har bir davlatning ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Fuqarolarning erkinligi, huquq va

manfaatlarini himoya qilish, adolatli ijtimoiy tizimni qurish hamda barqaror taraqqiyotga erishishni ijtimoiy institutlarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Mazkur institutlar aynan jamiyatning ijtimoiy tuzilmasini va fuqarolik faoliyatining poydevorini tashkil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning taxlili (Literature revitw). Jahonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda ijtimoiy institutlarning o‘rni masalasiga oid nazariy qarashlar insonlarning tafakkurida qadimgi davrlardan shakllanib kelgan. Jumladan, qadimgi yunon mutafakkirlaridan Platon va Arastular inson va davlat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni ijtimoiy tartiblar va axloqiy qadriyatlar bilan izohlaganlar. Keyingi davlarda esa G.Gegel, J.Lokk, Sh.Monteskye, A. de Tokvil kabi faylasuflar esa fuqarolik jamiyatini mustaqil ijtimoiy tizim sifatida o‘rganib, unda oila, ta’lim, diniy va madaniy tashkilotlar, nodavlat uyushmalar kabi institutlarning o‘rnini alohida ta’kidlab o‘tganlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Tadqiqotni olib borishda tarixiylik, qiyosiylik, kuzatish, mantiqiylik, tizimlilik, o‘zaro aloqadorlik ilmiy tadqiqot tamoyillaridan kelib chiqqan holda qiyosiy tahlil kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Biz avvalo ijtimoiy institutlar nima ekanligiga to‘xtalsak. Jamiyatning ma’lum bir ehtiyojlarini qondiruvchi, ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi va insonlar o‘rtasida barqaror aloqalarni ta’minlovchi tizimlar hisoblanadi. Shuningdek, fuqarolik jamiyatining asosiy tayanchi bo‘lib, insonlarning ijtimoiy faolligini oshirish, fuqarolik ongini shakllantirish va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlashda asosiy o‘rin tutadi. Shu boisdan ham, ijtimoiy institutlarning samarali faoliyatisiz to‘laqonli fuqarolik jamiyatini tasavvur etib bo‘lmaydi.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish davlatimiz siyosatini eng ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylangan. So‘nggi vaqtlarda mamlakatimizdagi faoliyat olib borayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, oila va ta’lim tizimi kabi ijtimoiy institutlarning huquqiy maqomlarini yanada mustahkamlash hamda ularning jamiyatimiz hayotidagi ishtiroklarini yanda kengaytirishga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirib kelinmoqda.

Mahalla instituti va fuqarolik jamiyatining boshqa tuzilmalari ijtimoiy adolatni ta’minlashda muhim rol o‘ynasa-da, ularning faoliyati ma’lum bir qiyinchilik va cheklovlarga ham duch keladi. Ularning samaradorligi ko‘p jihatdan davlat organlari bilan o‘rnatilgan hamkorlik munosabatlarining fe’l-atvoriga bog‘liq. Agar davlat mahallani o‘zining quyi bo‘g‘ini sifatida ko‘rib, uning faoliyatiga haddan tashqari aralashsa, uning mustaqilligini cheklasa, mahalla o‘zining “jamoatchilik ruhi”ni yo‘qotib, oddiy ijrochi organga aylanib qolishi mumkin. Bu holatda u fuqarolar manfaatlarini himoya qilish o‘rniga, yuqoridan tushirilgan topshiriqlarni bajaruvchi byurokratik tuzilmaga aylanadi [1].

Fuqarolik jamiyatinig asosiy belgilari Erkin individlar uyushmasi, o’zaro hamkorlikka asoslangan ijtimoiy tuzilma, murakkab tuzilishga ega bo’lgan plyuralistik tizim, o’zini o’zi rivojlantiradigan va o’zini o’zi boshqaradigan tizim kabi belgilardan iborat. Fuqarolik jamiyatining eng muhim omillari iqtisodiy erkinlik, mulk shakllarining rangbarangligi, bozor munosabatlari, inson va fuqaroning tabiiy huquqlarini so’zsiz e’tirof etish va himoya qilishdan iborat. Hokimyatning qonuniyligi va demokratik xususiyati, Qonun va odil sud oldida hammaning tengligi ,har bir shaxsning yuridik jihatdan ishonchli himoyalanganligi, hokimiyatning uchga bo’linishi va hokimiyatlarning o’zaro aloqasi prinsipiga asoslangan huquqiy davlat, Siyosiy va mafkuraviy pluralizm, konstruktiv muxolifatning mavjudligi, so’z va matbuot erkinligi, ommaviy axborot vositalarining mustaqilligidir [2].

Fuqarolik jamiyati demokratik jamiyatning ajralmas qismi bo‘lib, fuqarolarning ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishini ta’minlaydi. Fuqarolik jamiyatining kuchayishi nodavlat notijorat

tashkilotlar (NNT), jamoatchilik birlashmalari, mustaqil ommaviy axborot vositalari, professional uyushmalar va boshqa fuqarolik institutlarining rivojlanishi bilan bog‘liq. Bu institutlar davlat hokimiyati faoliyatini nazorat qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kabi vazifalarni bajaradi. Fuqarolik jamiyatining rivojlanishi davlat va jamiyat o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlaydi hamda fuqarolarning davlat boshqaruvida faol ishtirokini ta’minlaydi.

Fuqarolik jamiyati nazariyasi insoniyat tomonidan yara tilgan siyosiy qarashlar tarixi - jamiyat va inson, siyosat va davlat to‘g‘risidagi nazariy qarashlar, shuningdek, ilk jamoalardan to hozirgi davrgacha bo‘lgan jamiyatlar rivoj lanishining tajribasi asosida takomillashib bordi. Shu bilan birga, fuqarolik jamiyati unsurlarining nazariy jihatlari bundan bir necha ming yil oldin kashf etilganligiga e’tibor berilsa, bu jamiyat insoniyat yaratgan sivilizatsiyalarning eng so‘nggi hosilasi o‘laroq shakllanganligiga ishonch hosil qilamiz.

Nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar)jamoaviy faollikni kuchaytirish va fuqarolik ongini shakllantirishda muhim vosita. Mahalla institutlari O‘zbekiston kontekstida fuqarolik jamiyatining tarixiy va an’anaviy shakli bo‘lib, aholining o‘zini o‘zi boshqarish, mas’uliyatli qarorlar qabul qilish maktabidir .

O‘zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlar doirasida aynan shu muammoni hal etishga, ya’ni NNTlar va boshqa jamoat tashkilotlarining mustaqilligini oshirish, ularni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning shaffof mexanizmlarini yaratishga katta e’tibor qaratilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Jamoatchilik palatasining tashkil etilishi davlat va jamiyat o‘rtasida ochiq muloqotni yo‘lga qo‘yish, fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi ishtirokini kuchaytirishga qaratilgan muhim qadamdir .

Ijtimoiy sheriklik – bu davlat organlarining nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishdagi, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqishdagi hamda jamiyat uchun muhim bo‘lgan boshqa masalalarni hal etishdagi hamkorligidir. Bu tamoyil O‘zbekiston Respublikasining “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi Qonunida o‘zining aniq huquqiy ifodasini topgan. Qonunda ta’kidlanganidek, ijtimoiy sheriklikning asosiy prinsiplaridan biri bu “tomonlarning teng huquqliligi” va “ochiq-oshkoralik”dir. Bu shuni anglatadiki, chinakam fuqarolik jamiyati davlatga raqobatchi emas, balki ishonchli va teng huquqli sherik bo‘lishi kerak. Buning uchun esa davlat ularga ishonch bildirishi va mustaqil faoliyat yuritishlari uchun zarur sharoitlarni yaratib berishi lozim. Bu huquqiy asos ijtimoiy adolatning samarali amal qilishi uchun davlat va jamoat institutlari o‘rtasidagi sog‘lom, teng huquqli hamkorlik muhiti zarurligini ko‘rsatadi [3].

Demokratik va fuqarolik jamiyatiti to‘g‘risidagi birinchi prezidentimiz ham fikrlari ham e’tiborga molikdur. Demokratik jamiyat – bu eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni esa shaxslararo, millatlararo, davlat va ijtimoiysiyosiy munosabatlarni uyg‘unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi [4] . “Fuqarolik jamiyati bu – o‘zini o‘zi boshqarishdir. Uning birinchi va asosiy tamoyili shu”, “...o‘zini o‘zi boshqarish organlari-bizning kelajagimiz. Fuqarolik jamiyati qurmoqchi ekanmiz, uning asoslarini tashkil etuvchi poydevor mana shu organlar bo‘ladi” [5] deb ta’kidlaydilar.

Fuqarolik jamiyati institutlarining, jumladan mahallaning ham ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi samaradorligi ularning moliyaviy mustaqilligi va resurslar bazasiga ham bog‘liq. Ko‘p hollarda NNTlar va jamoat fondlari o‘z faoliyatini amalga oshirish uchun davlat grantlari, subsidiyalari yoki xalqaro donorlar yordamiga tayanadi. Bu holat ularning faoliyat doirasini ma’lum darajada cheklab qo‘yishi mumkin. Shu sababli, ijtimoiy adolatning muhim amaliy

mexanizmlaridan biri bu – fuqarolik jamiyati institutlarini barqaror moliyalashtirish tizimini yaratishdir [6] .

Huquqshunos olim V.D. Perevalovning ta'rificha, "Fuqarolik jamiyati – bu konkret insonga o'z faoliyatini qaratadigan, huquqiy an'ana va qonunlarga, umuminsoniy ideallarga hurmat muhitini yaratadigan, ijod va tadbirkorlik faoliyati

erkinligini ta'minlaydigan, farovonlikka erishish, inson va fuqarolarning huquqlarini amalga oshirish imkonini beradigan, davlat faoliyatini chegaralash va nazorat qilishning mexanizmini samarali ishlab chiqadigan erkin demokratik huquqiy davlat mavjud bo'lgan jamiyatdir" [7] .

Professor X.Odilqoriyevning fuqarolik jamiyatiga ta'rifi ham e'tiborga molik: "Fuqarolik jamiyati – har bir inson manfaatini ustuvor biluvchi, huquqiy an'ana va qonunlarga hurmat muhiti shakllantirilgan, umuminsoniy qadriyatlar e'zozlanadigan, inson huquqlari va erkinliklari so'zsiz ta'minlanadigan, davlat hokimiyatining samarali jamoatchilik nazorati mexanizmlari vujudga keltirilgan, insoniy munosabatlar chuqur ma'naviy-madaniy qadriyatlarga tayanadigan erkin demokratik huquqiy jamiyat" [8] .

Ijtimoiy institut qanchalik siyosiylashgan bo'lsa, uning siyosatdagi o'rni shunchalik ko'p bo'ladi. Biroq birorta institut ham o'ziga yetarli bo'lgan, o'z kuchiga ishongan mutlaq narsaga aylanmasligi lozim. Totalitar va yakka hokimlikka asoslangan tuzumlar sharoitida partiyalarda ana shunday holat kuzatilishi mumkin.

Demokratiya, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati taraqqiy etgan sharoitida, hatto bevosita siyosatdan juda ham uzoq bo'lgan tashkilot va muassasalar siyosiy jarayonlarni takomillashtirish va uyg'unlashtirishga o'z hissalarini qo'shishlari mumkin [9] .

Fuqarolik jamiyati to'g'risida Mamlakatimizda yetishib chiqqan Jadidlar ham o'z fikrlarini bildirgan. Jumladan, Fuqarolik jamiyatining odamlari jadidlar qarashlarida Fuqarolik jamiyati — bu davlatdan mustaqil, shaxsiy erkin faoliyat yuritishi mumkin bolgan ijtimoiy makon bolib, u erkin fikr, adolat, tenglik, inson huquqlariga hurmat kabi huquqlarga tayanadi [10] deb ta'rif berilgan.

Bundan tashqari, yana bir qator olimlar o'z fikrlarini bildiradi. Jumladan: Arastu: davlatda yashovchi fuqarolar fuqarolik jamiyatini tashkil qiladi. Davlat nima ekanligini aniqlashdan oldin fuqaro tushunchasini aniqlab olish kerak, chunki davlat fuqarolar yig'indisi, fuqarolik jamiyatidan boshqa narsa emas , G.Gegel: fransuz, anglosakson va nemis ijtimoiy tafakkuri yutuqlarini tizimlashtirib, fuqarolik jamiyati oiladan davlatga dialektik harakatning alohida bosqichini ifodalaydi [11] , S.L.Serebryakov: Fuqarolik jamiyati - bu ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy institutlar hayotini ta'minlaydigan, davlatdan mustaqil bo'lgan va shaxsning o'zini o'zi anglashi uchun sharoitlarni ta'minlashga mo'ljallangan ijtimoiy aloqalar tizimi [12] , V.G.Smolkov: fuqarolik jamiyati "siyosiy hokimiyatdan tashqarida bo'lgan jamiyatning bir qismi, shu jumladan siyosiy bo'lmagan munosabatlar, ya'ni qadriyatlar, manfaatlar xilma-xilligini ifodalovchi barcha nodavlat munosabatlar va institutlar yig'indisi. va odamlarning ehtiyojlari [13] , A.P.Kochetkov: fuqarolik jamiyati "shaxsga o'z fuqarolik huquqlarini amalga oshirish va jamiyat a'zolarining turli ehtiyojlari, manfaatlari va qadriyatlarini ifoda etish imkonini beradigan nodavlat ijtimoiy munosabatlar va institutlar tizimi [14] , I.B.Levin: "fuqarolik jamiyati jamiyatni integratsiyalash, ijtimoiy ziddiyatlarni sivilizatsiyaviy asosga kiritish, normalar va qadriyatlarni ishlab chiqarish, keyinchalik davlat tomonidan o'z sanktsiyasi bilan mustahkamlangan va ijtimoiy faol shaxs shakllanadigan muhitni shakllantirish funksiyalarini bajaradi [15] deb ta'rif beriladi.

Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations). Xulosa qilib aytganda, Mustaqillik davrida o'zini o'zi boshqarish organlarini fuqarolik jamiyati instituti sifatida isloh etish o'zining

ISSN: 3030-3931 Volume 13, issue 2, May
https://doi.org/10.5281/zenodo.20050561
026

samarasini berdi. Mahallalar mamlakatdagi aholini o‘zini o‘zi boshqarish jarayonlarida ishtirok etishlari, qarorlar qabul qilishda fuqarolar xohish va istaklarini e’tiborga olishga imkoniyatlar yaratishi bilan fuqarolik jamiyati institutiga aylanib bormoqda.

Takliflar:

1. Fuqoralik jamiyatini rivojlantirishda Mahallaning o‘rnini yanada mustahkamlash
2. “Otang-mahalla, onang-mahalla” va “Bir bola tarbiyasiga yetti ota-ona” iborasini amaliyotga targ’ib etish
3. Mahallalarda milliy qadriyatlarimizdan kelib chiqgan holda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tashkil etish,

Foydalanilgan adabiyotlar

1. I.N.Maxmudov Mahalla instituti va fuqarolik jamiyatining ijtimoiy adolatni ta’minlashdagi o‘rni. (maqola). “Zamonaviy dunyoda ijtimoiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar” nomli ilmiy, masofaviy, onlayn, konferensiya. 2025. – B. 99.
2. Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture. Innovative Academy Research Support Center. UIF = 8.2 | SJIF = 8.165 www.in-academy.uz. O’zbekistonda fuqarolik jamiyat instutlarining ijtimoiy hayotdagi roli. D.Jumaboyev. 2024-yil. – B. 107-110
3. O‘zbekiston Respublikasining 2014-yil 25-sentabrdagi “Ijtimoiy sheriklik to‘g‘risida”gi O‘RQ-376-son Qonuni //https://lex.uz/docs/-2468214
4. Karimov I.A. O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida T.: O‘zbekiston 1995. –B.262.
5. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. T.9.-T.: O‘zbekiston, 2001. B.317-322.
6. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Nodavlat notijorat tashkilotlari portal. //https://e-ngo.uz/
7. Perevalov V.D. Grajdanskoe obщestvo i pravovoe gosudarstvo. // Teoriya gosudarstvo i pravo. -M.: Norma, 2002. -S.95
8. Odilqoriyev H. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. -T.:Sharq, 2002. –B.172.
9. M.Ahmedova. Falsafa. – T. 2006. – B. 400
10. Sh. To‘xtasinov. Sciense and Technology. International journal of science and technology, Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda jadidchilik talimotining orni va ahamiyati.
11. Аристотель. Политика. Сочинения в 4-х томах. М., 1983. Т. 4.
12. Гегель, Г. Философия права. М., 1990.
13. Серебряков, С.Л. Цивилизованные основы для формирования гражданского общества в России // Социальнополитический журнал. 1995. №2.
14. Смольков, В.Г. Гражданское общество и государство. Гражданское общество. М., 1993.
15. Кочетков, А.П. Россия на пороге XXI века. М., 1998.
16. Левин, И.Б. Гражданское общество на Западе и в России // Полис. 1996. №5.